

---

## "Korruptsiya - taraqqiyot zavoli" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi

Nodavlat notijorat "Ziyonur" ayollar va o'smirlarni ijtimoiy-huquqiy, ekologik qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan Farg'ona shahar "Mash'al" mahalla fuqarolar yig'inida davra suhbatini o'tkazildi. Tadbir mahalla xodimlari, boshqaruv servis kompaniyalari rahbarlari, faollar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

"Korruptsiya - taraqqiyot zavoli" mavzusida tashkillangan davra suhbatida markazning boshqaruv kengashi raisi O'g'iloy Davronova, huquqshunos Dilshodjon Madumarov, targ'ibotchi Diloromxon G'ofurova hamda "Mash'al" MFY xotin-qizlar faoli Muqaddasxon Rojievalar tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi masalalar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Tadbir davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan javoblar olishdi. Fuqarolarga mavzu bo'yicha markaz tomonidan tayyorlangan bukletlar tarqatildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:40:08